

## QIRG'IZLARDA DAVLATCHILIK MASALALARIGA DOIR MULOHAZALAR.

Saydamov Shaxzod Arslan o'g'li

Samarqand Davlat Universiteti Tarix fakulteti 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19856130>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi qadimgi qirg'iz xalqining shakllanishi va bu xalqning arxeologik va etnografik manbalarda o'rganilishi, qirg'izlar mustaqil davlatiga asos solinishi, shuningdek qirg'izlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy turmush tarzining shakllanishi turli xil manbalar asosida tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Sima Syan, Gegun, Shi tszi, Qirg'iz-Nur ko'li, kirkir, khirkhiz, Tele ittifoqi, Minusinsk botig'i, Sayan-Altay.

**Annotation.** This article analyzes, based on various sources, the formation of the ancient Kyrgyz people in Central Asia and their study in archaeological and ethnographic sources, the foundation of the independent Kyrgyz state, as well as the formation of the socio-political and cultural way of life of the Kyrgyz.

**Keywords:** Sima Xiang, Gegun, Shiji, Kyrgyz-Lake of Light, Kirkir, Kirkhiz, Tele Union, Minusinsk Basin, Sayan-Altai.

**Аннотация.** В данной статье на основе различных источников анализируется формирование древнего кыргызского народа в Центральной Азии и изучение этого народа в археологических и этнографических источниках, основание независимого кыргызского государства, а также формирование социально-политического и культурного образа жизни кыргызов.

**Ключевые слова:** Сима Цянь, Гегун, Шицзи, Киргиз-Нурское озеро, киркир, кирхиз, союз Теле, Минусинская впадина, Саян-Алтай.

### Kirish

Qirg'iz xalqi Markaziy Osiyo xalqlari orasida eng qadimiylaridan biri hisoblanadi.

Ularning tarixiy ildizlari miloddan avvalgi III asrga borib taqaladi. Turli xil manbalarning o'rganilishi natijasida qirg'iz xalqi tarixi ko'p asrlik o'tmishga ega ekanligi isbotlangan. Xitoy, fors, arab va yunon manbalarining o'rganilishi natijasida bu xalq to'g'risidagi ilk yozma ma'lumotlar uchraydi. Bu manbalarning eng qadimgisi — xitoy tarixchisi **Sima Syanga tegishli bo'lib**, uning "*Shi tszi*" ("Tarixiy yozuvlar") asarida qirg'iz xalqi to'g'risida atroflicha ma'lumotlarni uchratamiz. Unda miloddan avvalgi 201-yil voqealari yoritilishi asnosida ilk bor "**Gegun podsholigi**" haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, bu nom ostida qadimgi qirg'iz davlati nazarda tutilgan<sup>1</sup>.

Yuqorida ta'kidlaganidek, qirg'iz xalqi manbalar asosida o'rganilishi natijasida bu xalq qadimgi davrda xalq sifatida shakllanib, tarix sahnasida o'z o'rniga ega bo'lgan. Jumladan, akademik **V.V. Bartold** qadimgi qirg'izlarni Markaziy Osiyoning qadimiy turkiy xalqlaridan biri sifatida quyidagicha fikr bildiradi: "Markaziy Osiyo xalqlari orasida nomi bunchalik erta uchraydigan boshqa xalqni topish mushkuldir"<sup>2</sup>. Haqiqatdan ham Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlar orasida qirg'iz xalqi milloddan avvalgi asrlarda xalq sifatida shakllanib, o'z mustaqil davlatiga ega bo'lgan.

Xitoy tarixchisi Sima Syan qirg'iz xalqining "Gegun" (qadimgi talaffuzda *Ki-kiun*) deb atagan podsholigini hozirgi Sharqiy Turkistonning g'arbiy qismida deb tushuntiradi.

<sup>1</sup> Бичурин Н.Я., 1851, С.97

<sup>2</sup> Бартольд В.В. Сочинения. Т. II, М., 1968, С.143

Tadqiqotlar va oʻrganishlar natijasida bu hudud hozirgi **Qirgʻiz-Nur koʻli** atrofida boʻlgani aniqlangan. Xitoyshunos **L.P. Borovkova** fikricha, “Gegun” nomi xitoy tilida “kirkir”, “khirkhiz” shaklida qayd etilgan, bu esa hozirgi “qirgʻiz” etnonimiga toʻgʻri keladi.<sup>3</sup> Xitoylik tarixchilarning oʻzlari ham, yevropalik olimlar ham bu transkripsiyani “qirgʻiz” soʻzini ifodalash uchun oʻzlariga moslashtiradilar. Shunday qilib, “qirgʻiz” etnonimi hozirgi zamonda mavjud boʻlgan barcha turkiy ildizli nomlarning eng qadimiylaridan biri hisoblanadi.

Miloddan avvalgi III asr oxirlariga kelib qirgʻizlar mustaqil siyosiy birlik sifatida Gegun davlatini barpo etganlar. Biroq oʻsha davrda shimolda kuchaygan **xunlar (syunnular)** qirgʻizlarning siyosiy taqdiriga katta taʼsir koʻrsatgan. Jumladan, mil.avv. 203–202-yillarda xunn qabilasi hukumdori **Maodun shanyu** boshchiligidagi xunlar Gegun davlatini oʻzlariga boʻysundirgan boʻlsada, ammo qirgʻizlar nisbatan mustaqil oʻlka maqomini saqlab qolishga muvaffaq boʻlishgan<sup>4</sup>.

Keyinchalik, mil.avv. 49-yilda xunn qoʻmondoni **Chji-Chji shanyu** Gegun davlatini qayta boʻysundiradi. Xitoy manbalarida keltirilishicha, shu davrda xunlar safida asirlikda boʻlgan xitoy sarkardasi **Li Lin** Gegun hokimi etib tayinlanadi va keyinchalik bu hududni boshqargan sulolaning asoschisi boʻladi. N. Bichurin shunday yozadi: “Li Lin Gegun podshohligini mustahkamlab, mahalliy aholi bilan sulhda yashagan, uning avlodlari bu yurtda uzoq vaqt hukmronlik qilganlar”<sup>5</sup>.

Milodiy I asrga kelib, qirgʻizlar tele (tiele) qabilalari bilan yaqin aloqa oʻrnatadilar. Tele ittifoqi *dinglin, tuxsi, gaogyuy, tulasi* kabi turkiy xalqlar guruhlarni oʻz ichiga olgan. Qirgʻizlar bu ittifoqning shimoliy tarmogʻida boʻlib, asosan Yenisey (Enasoy) va Sayan togʻlari orasida yashaganlar.

**A.N. Bernshtam** bu jarayonni shunday izohlaydi: “Tele qabilalari bilan integratsiya qirgʻizlarning etnik shakllanish jarayonini tezlashtirdi, ular Yenisey vohasida mustahkam siyosiy markaz barpo etdilar”<sup>6</sup>.

Arxeologik topilmalar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Minusinsk botigʻi, Sayan-Altay va Yenisey vohasidagi qadimiy qabristonlardan topilgan tosh yodgorliklar, bronza va temir oʻq uchlari qadimgi qirgʻizlarning bu hududlarda doimiy yashaganini koʻrsatadi<sup>7</sup>.

#### **Yenisey qirgʻizlari davlati**

VI asrga kelib, Janubiy Sibirda **Yenisey qirgʻizlari davlati** shakllanadi. Bu davlat Sharqiy Turk xoqonligi bilan bir davrda mavjud boʻlgan. Davlat tepasida **xoqon** turgan boʻlib, u oʻz yerlarini urugʻ boshliqlari, harbiy zodagonlar va ruhoniylar yordamida boshqargan. **S.M. Abramson** bu davlat tuzilishini quyidagicha tavsiflaydi: “Yenisey qirgʻizlari ijtimoiy tuzilmasida, xoqonlik hokimiyati atrofida markazlashgan urugʻ- qabila zodagonlari hukmron edi; ularning harbiy-maʼmuriy tizimi qattiq intizom asosida shakllangan”<sup>8</sup>.

Bu davrda qirgʻizlar oʻzlarining yozuv tizimiga ham ega boʻlib, Yenisey bitiklari paydo boʻladi. Ular qadimgi turk run alifbosida yozilgan boʻlib, qirgʻiz tilining fonetik tizimini aks ettiradi. Run yozuvlarning tahlili bu xalqning siyosiy mustaqilligi va madaniy yetukligini koʻrsatadi<sup>9</sup>.

<sup>3</sup> Боровкова Л.П., К вопросу о ранних киргизах, 1982, С.24

<sup>4</sup> Бартольд В.В. Сочинения. Т. III

<sup>5</sup> Бичурин Н.Я., 1851, 101-бет

<sup>6</sup> Бернштам А.Н. История киргизов и Киргизии, 1952, С.33

<sup>7</sup> Кызласов Л.Р. Происхождение киргизов, 1969

<sup>8</sup> Абрамсон С.М. Киргизы и их этногенез и историко-культурные связи, 1971, С.64

<sup>9</sup> Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий, 1893

Milodiy VIII asr oxiriga kelib, Yenisey qirg'izlari kuchayib, o'z mustaqilligini to'liq tiklaydi. Uyg'ur xoqonligi bilan raqobat natijasida qirg'izlar 840-yilda uyg'urlarni tor-mor etib, ularning poytaxti Ordubaliqu egallaydi. Bu voqea xitoy yilnomalarida shunday qayd etiladi: "Qirg'izlar g'arb tomondan hujum qilib, Uyg'ur xoqonligini yengib va barcha viloyatlarni bosib oldilar" (Yuan Chao Bi Shi, Pekin, 1986). Bu yutuq natijasida Yenisey qirg'izlari Sharqiy Osiyoda yirik siyosiy kuchga aylangan.

IX asr o'rtalarida qirg'izlarning siyosiy nufusi Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarigacha yoyilgan. Ularning siyosiy markazi Yenisey vodiysi bo'lib qolgan, ammo madaniy ta'sir doirasi kengaygan. Arab-fors mualliflari qirg'izlarni "sodiq, jangovar va mustaqil xalq" sifatida ta'riflashadi. Ibn Xordadbeh shunday ma'lumot keltirib o'tgan: "Qirg'izlar shijoatli xalq bo'lib, ularning yurtida harbiy intizom eng oliy qadriyat hisoblanadi".

Bu davrda Yenisey qirg'izlari madaniy hayotida o'ziga xos yuksalish kuzatilgan.

Ularning diniy e'tiqodi shomonlik bo'lib, tabiat va ajdodlarga sig'inish markaziy o'rinda turgan. Biroq IX–X asrlarda buddaviylik, moniylik va islom asta-sekin kirib kelgan<sup>10</sup>.

XI–XII asrlardagi qirg'iz xalqi tarixi nuqtai nazardan juda kam o'rganilgan.

Yozma manbalarga o'rganilishi natijasida, mo'g'ullar bosqini arafasida qirg'iz xalqlari Ob–Irtish daryolari oralig'idagi yerlarni (Oltoyning shimoliy-g'arbiy qismi) shuningdek, Yuqori (Tuva) va O'rta (Minusinsk vohasi) Yenisey hududlarini o'z ichiga olganligi ta'kidlangan.

Shunday qilib, XIII asrga kelganda Yenisey hududidagi Qirg'iz xonligi bir necha kichik, mustaqil mulklarga bo'linib ketdi. Har bir mulklar inoq tomonidan boshqarilardi. Eng qudratlilari ikkita xonliklik bo'lib bular, Qirg'iz va Kem-Kemjiyut qabilalari edi.

1207–1208-yillar qishida Chingizxon Tangut davlati (Si Sya)da urush olib borayotgan paytda, Chingizxon huzuriga Yeniseyning yuqori oqimida yashovchi qirg'izlarning elchilari keladi. Bu elchilikka javoban Chingizxon o'z elchilari bo'lgan — Ilik-Timur va Atkirakni qirg'izlar huzuriga yubordi.

Qirg'izlar Chingizxon elchilarini hurmat bilan qabul qilib, Chingizxonga katta sovg'a-salomlar yo'llashdi. Shundan boshlab qirg'izlar mo'g'ullarga bo'ysungan hisoblanadi.<sup>11</sup>

Ammo "Sirli tarix" bu voqealarni boshqacha tasvirlaydi. 1207-yilda Chingizxonning katta o'g'li Jo'chi o'rmon-dasht xalqlarini bo'ysundirish uchun katta qo'shin bilan yuborilgan edi.

Jo'chi bosqinchiligi natijasida oyratlar, buryatlar va Janubiy Sibirning boshqa xalqlari mo'g'ullarga bo'ysundilar. Jo'chi qo'shini bosimi ostida qirg'iz xalqi ham mo'g'ullarga bo'ysundi<sup>12</sup>.

1217-yilda Chingizxonga bo'ysunuvchi qirg'izlarga Baykal ko'li g'arbidagi tumat qabilasi qo'zg'olonini bostirishni buyurdi. Qirg'izlar Chingizxonning bu buyrug'ini bajarishdan bosh tortdilar va mo'g'ullarga qarshi chiqishdi. Shunda Jo'chi Yenisey qirg'izlarining asosiy yashash hududida tartib o'rnatish uchun qat'iy choralar ko'rishga majbur bo'ldi.

Yenisey qirg'izlari Jo'chining dahshatli va ulkan qo'shinlariga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Jo'chi itoatsiz ko'chmanchilarni va Yenisey–Irtish oralig'ida yashovchi qirg'izlarni bo'ysundirish uchun katta kuch sarflashiga to'g'ri keldi. Qirg'izlarning g'arbiy qo'shnilari bo'lgan telengutlar ham unga bo'ysundilar.

<sup>10</sup> Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. Л., 1971

<sup>11</sup> Бутанаев В.Я., Абдыкалыков А. Материалы по истории Хакасии XVII в. - начXVIII в. - Абакан, 1995. - С.215.

<sup>12</sup> Бутанаев В.Я. Этническая история хакасов XVIII-XIX вв. // Материалы к серии "Народы СССР". Вып.3. Хакасы. - М. - с. 21-22.

## Xulosa

Shunday qilib, dastlabki qirg'iz qabilalari mil.avv. III asrda Gegun podsholigi shaklida tarix sahnasiga chiqib, mil.avv. I asrda xunlar ta'siriga tushgan, ammo mustaqillikni saqlab qolgan. Qadimgi qirg'izlar miloddan avvalgi III asrda Gegun (Khi-khi) podsholigi sifatida shakllanib, o'sha davrdan boshlab turkiy dunyo etnogenezining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

Milodiy VI asrda Yenisey qirg'izlari davlati barpo etiladi, IX asrda esa ular Sharqiy Osiyodagi eng kuchli siyosiy markazlardan biriga aylangan. Ularning siyosiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti keyinchalik Tyanshan qirg'izlarining shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lgan. Bu xalqning shakllanishida Yenisey, Oltoy, Sug'd, Sharqiy Turkiston va Tyanshan vohalaridagi turli etnik guruhlar, shuningdek, xun, tele, tungus va sug'd elementlari o'zaro aralashgan. Bu jarayon uzoq davom etgan tarixiy integratsiya natijasi sifatida yuzaga kelgan.

Milodiy VI–IX asrlarda Yenisey qirg'izlari davlati vujudga kelib, siyosiy jihatdan mustahkam tizimga ega bo'ldi. Qadimgi qirg'izlar o'z davrining yetuk davlat boshqaruvi, qonun tizimi, harbiy intizomi va yozuv madaniyatiga ega xalq sifatida tanildi.

Ularning iqtisodiy hayoti ko'chmanchi chorvachilik, o'troq dehqonchilik va hunarmandchilikka asoslangan bo'lib, bu jarayon ularni Yettisuv va Farg'ona vohalarida yuksak madaniyatli xalq darajasiga ko'tarishda muhim o'rin egalladi.

## Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. Абрамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. Л., 1971
2. Бернштам А.Н. История киргизов и Киргизии, 1952, С.33
3. Бартольд В.В. Сочинения. Т. II, М., 1968, С.143
4. Бутанаев В.Я., Абдыкалыков А. Материалы по истории Хакасии XVII в. - начXVIII в. - Абакан, 1995. - С.215.
5. Боровкова Л.П., К вопросу о ранних киргизах, 1982, С.24
6. Бичурин Н.Я., 1851, С.97
7. Кызласов Л.Р. Происхождение киргизов, 1969
8. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий, 1893